

Boshlang'ich sinflarda zamonaviy dars va uni tashkil qilish shakillari.

Maxkamov Akmaljon Yuldashevich

p.f.f.d.(PhD).dosent.

Qo`qon universiteti Ta`lim fakulteti Ta`lim kafedrası.

Annotatsiya: Mamlakatimizda ham zamonaviy ta'lim jarayonida ko'plab islohotlar amalga oshirildi, ta'limning maqsad va mazmuni o'zgartirildi, shuningdek, o'qitishning yangi uslublari va texnologiyalari joriy etildi. Ushbu maqolaning dolzarbligi ham ayna shunda desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi, zamonaviy darsliklarni sonini oshirish, ularning sifatiga katta e'tabor qaratish, mamlakatlararo holatni o'rganib chiqish, xorijiy tajribalarni amalda tadbiq qilish, va o'z yagona innovatsion modelni shakillantirish ushbu ilmiy izlanishning ustuvor maqsadlaridan biridir.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim metodikasi, zamonaviy darsliklar, ta'lim va tarbiya, innovatsiya, AKT, interfaol metodlar, SWOT tahlil, elektron ta'lim, erkinlik, ilg'or pedagogika, zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy darslik kontseptsiyasi.

Modern lesson in primary grades and forms of its organization.

Makhkamov Akmaljon Yuldashevich

p.f.f.d.(PhD).docent.

Department of Education, Faculty of Education, Kokan University.

Abstract: Many reforms have been implemented in the modern education process in our country, the purpose and content of education have been changed, and new teaching methods and technologies have been introduced. It is no exaggeration to say that the relevance of this article is to increase the number of modern textbooks, to pay great attention to their quality, to study the situation between countries, to apply foreign experiences in practice, and to form a single innovative model. is one of the priority goals of this scientific research.

Key words: primary education methodology, modern textbooks, education and training, innovation, ICT, interactive methods, SWOT analysis, electronic education, freedom, advanced pedagogy, modern information technologies, modern textbook concept.

Современный урок в начальных классах и формы его организации.

Махкамов Акмалжон Юлдашевич

п.ф.ф.д.(PhD).доцент.

Департамент образования, педагогический факультет Университета Коканд.

Аннотация: В современном образовательном процессе в нашей стране реализовано множество реформ, изменены цели и содержание образования, внедрены новые методы и технологии обучения. Не будет преувеличением сказать, что актуальность данной статьи заключается в увеличении количества современных учебников, повышении внимания к их

качеству, изучении ситуации между странами, применении зарубежного опыта на практике, формировании единой инновационной модели является одной из приоритетных целей данного научного исследования.

Ключевые слова: методология начального образования, современные учебники, образование и обучение, инновации, ИКТ, интерактивные методы, SWOT-анализ, электронное образование, свобода, передовая педагогика, современные информационные технологии, концепция современного учебника.

KIRISH

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Maqolamizda, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. Allomalarimizning: **«Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik»¹**, - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zahirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarning jadal taraqqiy etib, ta'lim sohasiga jadal kirib kelishi, hayotimizda sezilarli ahamiyatga ega bo'lib borayotgani bu boradagi bilim va malakalarimizni ham mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi.

ADABYOTLAR TAHLILI

Mavzuni yanada teran o'rganish, uni ochiqlash, maqsadida bir qator tadqiqot ishlari o'rganib chiqilib tahlil qilindi. Tahlil qilish mobaynida innovatsion texnologiyalariga asoslangan darsning a'naviy darslardan farqi shuki, ushbu darslarda o'quvchiga erkinlik muhiti yaratib beriladi. O'qitishning turli xil texnologiyalariga esa: pedagogik o'yinlar, qiziqarli boshqotirmalar, rasm ko'rinishidagi vazifalar kirib, ular bolada o'qishga bo'lgan ishtiyoqni yanada kuchaytiradi. G. Saidova va N. Avliyokulovalarning "Boshlang'ich sinflarda o'quv

¹ Allomalarimiz eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T: «O'zbekiston», 2009, 15-bet.

jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish”² deya nomlangan ilmiy-ommaviy maqolasida boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogic texnologiyalar, o‘quv jarayonini tashkil etish usullari va shakllari to‘g‘risidagi umumiy xulosalarga bag‘ishlangan. Hamda, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari bayon etilgan.

TADQIQOT METOTOLOGIYASI.

Endilikda biz tadqiqotimizni metodologik qismini va o‘rganib chiqilgan adabiyotlardagi mavjud kamchiliklarni to‘ldirish strategiyasini ishlab chiqamiz. Metodologiya qismini to‘ldirish va uni shakllantirish maqsadida tadqiqotimiz uchun kerakli ma‘lumotlarni turli ma‘lumotlar bazalari ma‘lumotlariga tayangan holda amalga oshiribgina qolmay, ushbu mavzu yuzasidan olib borilayotgan ishlarni chuqur o‘rganib chiqqan holda o‘z izlanishlarimizni mushohada qilamiz.

Metodologiya qismida mamlakatlararo qiyosiy tahlil o‘tkazildi, zamonaviy darsliklarning ta‘lim sifatini oshirishdagi o‘rni diagramma orqali ko‘rsatib berildi. Farg‘ona viloyatining 42 – sonli umum ta‘lim maktabining o‘qituvchilari bilan zamonaviy darsliklar haqida suhbat olib borildi va metodologiya qismining so‘ngi qismida SWOT tahlil tuzib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Yuqorida aytib o‘tilgan metodlarga ko‘ra quyidagi natijalarni oldik: Farg‘ona viloyatining 42–sonli umumta‘lim maktabining oily toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan maktablardagi yangi darsliklar haqida gapirib, avvalgi darsliklarga nisbatan o‘quvchi uchun ancha qulay va manfaatli ekanligini aytmoqda. O‘qituvchi suhbatda, zamonaviy darsliklarni eski darsliklarga nisbatan ustunlik jihatlarini sanab o‘tdi. Yangi avlod darsliklari ta‘lim standartlari talablariga javob bera oladigan, mukammal qilib yaratilgan. Kitoblar dizayn jihatidan ham chiroyli ishlangan. Kitob muqovasining ranglari yorqin va kayfiyatni ko‘taruvchi. Kitobni ilk bor qo‘limizga olganimizda ranglarini ko‘rib xursand bo‘lganman. Bu holatni o‘quvchilarimda ham kuzatdim. Avvalgi darsliklarimiz bilan solishtirganda yangi darsliklarimiz ixchamligi va asosiy fanlarimizning to‘rt qismdan iboratligi bilan alohida ajralib turadi..


Ta‘limning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat. Xorijiy tajribaga o‘tadigan bo‘lsak Finlandiyadagi jozibador o‘quv muhiti shaharning Xelsinki World Design Capital 2022 dasturining bir qismi bo‘lgan loyihadir. Unda texnologik yutuqlarni eng so‘nggi ta‘lim texnikasi bilan uyg‘unlashtirgan zamonaviy ta‘lim usullari va muhitlari mavjud. Loyihaning asosiy g‘oyasi talabalar ma‘lumotni quloq orqali qabul qiladigan an‘anaviy ma‘ruzalar o‘rniga faol va jamlangan o‘qitish usullaridan foydalanishdir. Jismoniy makon va texnologiya o‘z-o‘zidan hech narsani hal

² G. Saidova., N. Avliyokulova “Boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish”., Pedagogical Institute of Bukhara State University., ISSN 2148-1415., Society and innovations Special Issue – (02) 2022.

qilmaydi. Avvalo, pedagogik g'oyalar muhim ahamiyatga ega. Asosiy e'tiborni o'quvchilarning o'ziga, ularning faoliyatiga, axborot olish va tizimlashtirish masalalariga qaratish lozim.

Finlyandiya ta'limga sarflangan mablag'lar bo'yicha dunyo mamlakatlari reytingida 17-o'rinda turadi. Xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 6,9 foizini tashkil etadi. Finlyandiyada barcha maktablar teng va bepul. Barcha ta'lim muassasalari bir xil mablag' oladi. Bolalar o'qish uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni, jihozlar va maktabga olib borishni bepul olishadi. Tizim bolaga hech narsa kerak bo'lmaydigan tarzda qurilgan.

Rasm 1. Ta'lim darajasi bo'yicha eng yuqori ma'lumoti kasbga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan shaxslarning ulushi (2022-yil) Foizlarda³



Ta'limga qaratilgan yuksak e'tibor natijasida Finlandiyaning ta'lim sohasida erishayotgan yutuqlari o'sib bormoqda, bunga yaqol dalil bo'lib mamlakatdagi ishsizlik kamayishi, aholining asosiy qatlami savodhonlar ekani deb aytishimiz mumkin. Endilikda Yaponiyada olib borilayotgan zamonaviy darsliklarning mamlakat va ijtimoiy holatga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Yaponiyaning boshlang'ich ta'lim tizimi umrbod ta'lim va shaxsiy o'sish uchun poydevor yaratishda muhim rol o'ynaydi. Maqolamizning natijalar qismida biz Yaponiyadagi boshlang'ich maktab ta'limining ajoyib xususiyatlarini ko'rib chiqib, uning muvaffaqiyati va o'ziga xosligiga hissa qo'shadigan asosiy tarkibiy qismlarni o'rganib chiqdik. Unga ko'ra, ularning zamonaviy darslarni shakllantirish umuman olganda o'quvchini barkamol darajaga olib kelish yo'lidagi strategiyasi mavjud bo'lib ushbu strategiya 10 moduldan iborat ekan. Ular:

- ✓ Yaxlit rivojlanish, Yapon boshlang'ich ta'limi o'quvchilarning hissiy, ijtimoiy va jismoniy tomonlarini tarbiyalash intellektual o'sish kabi muhim ekanligini e'tirof etib, yaxlit rivojlanishga katta e'tibor beradi. O'qituvchilar ilmiy yutuqlardan tashqari, boshqalarga

³ ОЭСР (2023), таблица А1.3. Для получения дополнительной информации см. раздел "Источник" и "Источники, методологии и технические примечания по образованию в 2023 году" (OECD, 2023_[1]).

empatiya, intizom va hurmatni singdirishga e'tibor berishadi. Ushbu g'amxo'r yondashuv hamkorlik va hamjamiyatning qadr-qimmatini tushunadigan rahmdil shaxslarni rivojlantiradi.

✓ Axloqiy tarbiya, Yapon boshlang'ich maktablarining muhim xususiyati axloqiy tarbiyani o'z ichiga oladi.

✓ Yuqori malakali o'qituvchilar, aytishimiz mumkin-ki har qanday muvaffaqiyatli ta'lim tizimining asosi uning o'qituvchilaridir va Yaponiya bu masalaga jiddiy yondashadi.

✓ Yaxshi ishlab chiqilgan o'quv dasturi Yaponiya boshlang'ich maktab o'quv dasturi asosiy o'quv va darsdan tashqari mashg'ulotlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun puxta ishlab chiqilgan.

✓ Kooperativ ta'lim Yaponiya boshlang'ich ta'limining asosini hamkorlik tashkil etadi. Faqat shaxsiy yutuqlarga e'tibor qaratish o'rniga, guruh faoliyati va loyihalari rag'batlantiriladi.

✓ Qiziqarli o'rganish usullari, o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash uchun yaponiyalik boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qitishning innovatsion usullaridan foydalanadilar.

✓ Tabiat va atrof-muhitga hurmat, Yaponiyaning tabiatga bo'lgan madaniy yaqinligi uning ta'lim tizimida namoyon bo'ladi.

✓ Xavfsiz va inklyuziv muhit, Yaponiya boshlang'ich maktablari barcha o'quvchilar uchun xavfsiz va inklyuziv muhit yaratishga katta e'tibor beradi.

✓ Salomatlik va ovqatlanishga e'tibor, Yaponiya boshlang'ich maktablarida jismoniy farovonlikka katta ahamiyat beriladi.


✓ Doimiy baholash va fikr-mulohaza, Yaponiya ta'limi uzluksiz takomillashtirishni qadrlaydi va bu ularning baholash tizimida o'z aksini topadi.

Hulosa qilib aytganda, Yaponiya boshlang'ich maktablaridagi ta'lim tizimi yosh ongni tarbiyalash uchun yaxlit va ilhomlantiruvchi yondashuvni o'zida mujassam etgan. Yaxlit rivojlanish, axloqiy ta'lim, hamkorlikda o'rganish va inklyuziv muhitni ta'kidlab, Yaponiya nafaqat akademik muvaffaqiyatga erishadigan, balki jamiyat a'zolari sifatida rahm-shafqatli va mas'uliyatli bo'lgan har tomonlama barkamol shaxslar uchun poydevor yaratadi. Yuqori malakali o'qituvchilarning fidoyiligi va mustahkam o'quv dasturi tufayli Yaponiya boshlang'ich ta'limi o'quvchilarni ishtiyoq va qiziqish bilan o'rganishga ilhomlantirishda davom etmoqda. Ushbu ajoyib xususiyatlar haqida fikr yuritish orqali biz maktablarimizdagi ta'lim tizimini boyitish, kelajak avlod uchun porloq kelajakka yo'l ochish uchun ilhom va g'oyalarga ega bo'lishimiz mumkin.

Rossiya ta'lim tizimida qo'llanayotgan zamonaviy usullarga keladigan bo'lsak Finlyandiya ta'lim tizimi Rossiyanikiga qaraganda ko'proq afzalliklarga ega, bu mening farazimni tasdiqlaydi.

Ammo, PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study)⁴ xalqaro tadqiqoti natijalariga ko'ra, 50 ta davlatdagi tengdoshlari orasida rossiyalik 4-sinf o'quvchilari (boshlang'ich maktab bitiruvchilari) o'qish bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatgan.

Diagramma 2. O'quvchilarimizning PIRLS-2016 natijalari.



Mamlakatlararo holatni tahlil qilar ekanmiz davlatimiz ta'lim tizimini takomillashtirish uchun barcha sa'y-harakatlarini amalga oshirishi kerak, degan xulosaga kelish mumkin. Ta'lim, ayniqsa, maktab ta'limi mamlakatimiz fuqarolarini shakllantirishning eng muhim bosqichi ekanligini tushunish o'rinlidir. Shunday ekan, jamiyatimiz kelajagi bevosita ta'lim sifatiga bog'liq.

MUHOKAMA

Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'рни beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga "Men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman" deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy

⁴ Studies in International Comparative and Multicultural Education Issue 13: Progress in Reading Literacy in National and International Context. The Impact of PIRLS 2006 in 12 Countries (pp.183-197)., Chapter: Ch. 12. The Impact of PIRLS in the Russian Federation., Publisher: Berlin, NY, Muenchen, Muenster : Waxmann Verlag

ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi kerak ekanligi ushbu tadqiqot ishimizning necgog'liq dolzarbligini ochib beradi.

Boshlang'ich ta'limga zamonaviy axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'qituvchi ijodkor bo'lishi kerak, u har bir o'quv soatiga puxta tayyorlanib, yangilik bilan kirishi kerak, chunki har darsda takrorlanadigan bir xillik o'quvchini darsga va fanga qiziqishini susaytiradi, natijada dars samaradorligining pasayishiga olib keladi. Shu sababdan ham boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maxsus har haftaning dushnba kuni bo'lib o'tadigan bepul Texnodarslarning shakillanishi o'quvchilarga katta imkoniyat o'laroq xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqotdan xulosa tariqasida shuni aytishimiz mukinki, har bir qarashlarni o'z o'rnini va bolaning jamiyatda yakdil inson bo'lib yetishishi uchun o'rnini mavjud deyishimiz mumkin.

Zamonaviy darslik haqida umumiy tushuncha hosil qilinib, axborot kommunikasiya texnologiyalari asoslari o'tilishi, hozirgi kunning yuqori talabidagi ko'nikmalari sekin astalik bilan o'zlashtiriladi, xalqaro metodlar amaliyotda qo'llaniladi, 1 va 2 bo'limda o'zlashtirilgan bilimlar amaliyotda qilay olish.

Yana bir yechim sifatida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali biz nafaqat zamonaviy darsliklarni shakillantiramiz balki o'quvchida zamonaviy ko'nikmalarni ham vujudga kelishiga imkoniyat yaratib beramiz.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Hozirgi dunyoda yoshlar xalqaro standartlarga mos axborot texnologiyalari bilan bog'liq yangi ta'limga juda kerak", bu ta'lim jarayonini optimallashtirish va oshirishni muhim ahamiyatga ega. Ta'limni axborotlashtirish jarayoni yangi axborot texnologiyalaridan keng talabga fan o'qituvchilariga kattalar talablar qo'yish bilan farqlanadi. Yangi texnologiyalar yordamida talabalarning bilimlarini va ta'lim sifatini olish mumkin. Maktab har qanday millatning tayanchi va tayanch toshi bo'lib, u har qanday millatning har tomonlama o'sishi, ma'naviy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Xulosa sifatida aytish mukinki, axborot kommunikativ vositalarining boshlang'ich sinf darslarida qo'llanilishi va darsning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-con Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-con, 29.04.2019

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlariga oid davlat siyosati 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021 yil 18 yanvardagi 23-son qarori.

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

4. Saidova. N. “Boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish”., Pedagogical Institute of Bukhara State University., ISSN 2148-1415., Society and innovations Special Issue – (02) 2022.

5. Qorayev.S.B.“Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy tamoyillari”., Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions., Chirchik, Uzbekistan.

6. Inoyatov U. I., Muslimov N. A., Usmonboyeva M. “Pedagogika: 100 ta savolga 1000 ta javob”., Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – B. 140-141.

7. Studies in International Comparative and Multicultural Education Issue 13: Progress in Reading Literacy in National and International Context. The Impact of PIRLS 2006 in 12 Countries (pp.183-197)., Chapter: Ch. 12. The Impact of PIRLS in the Russian Federation., Publisher: Berlin, NY, Muenchen, Muenster : Waxmann Verlag.

8. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O‘quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012

9. Maxkamov, A. (2023). Aralash talim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishni pedagogik usullari. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (10), 547-551.

II. Internet saytlari

1. www.ziynet.uz

2. <http://www.istedod.uz/>

3. <http://www.pedagog.uz/>

4. www.press-service.uz.

5. www.bilim.uz.